

## OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA CHET TILLARINI O'QITISHDA MASOFAVIY TA'LIMNI JORIY ETISH TEXNOLOGIYALARI

*Mustafoqulova Hulkar Ahmedovna*

*Jizzax politexnika instituti*

*"Xorijiy tillar" kafedrasi, dotsent*

[hulkarmustafoqulova@gmail.com](mailto:hulkarmustafoqulova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada ta'lim tizimida masofaviy ta'lim, masofaviy ta'limni joriy etish texnologiyalari, xususan, LMS (Learning Management system) - ta'limni boshqarish tizimlarining funksiyalari va ularga qo'yiladigan talablar xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar: Tayanch so'z va iboralar:** Masofaviy ta'lim, masofaviy ta'lim texnologiyalari, elektron ta'limni boshqarish tizimi, o'quv kontentini boshqarish tizimi;

**Аннотация:** В статье рассматриваются некоторые аспекты технологии внедрения дистанционного обучения в системе образования. Даются характеристика и требования к LMS (системы управления обучением) системам.

**Ключевые слова:** Дистанционные обучения, электронное обучение, системы управления обучением, системы управления учебным контентом (содержанием);


**The abstract:** In the article is considered some aspects of distance learning technology introduction into educational system. Especially, the characteristics and requirements of LMS - Learning Management systems is given.

**Key words:** Distance learning, electronic training, LMS - learning Management systems, control systems of educational content;

Masofaviy o'qitish uzluksiz ta'lim shakllaridan biri bo'lib, u insonning ta'lim olish va axborot to'plash huquqlarini amalga oshirishga qaratilgan bo'ladi. Mazkur usulda zamonaviy kompyuterlar yordamida hozirgi vaqtgacha yetib kelgan, axborot uzatishning deyarli barcha shakllarini samarali amalga oshirish mumkin.

Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta'lim jarayoniga kirib kelishi an'anaviy o'qitish usullariga qo'shimcha ravishda yangi o'qitish shakli - masofaviy o'qitish yaratilishiga omil bo'ldi

Shu o'rinda masofaviy ta'limning tarixiga nazar salsak, jahonda masofaviy o'qitish (Distance education) termini o'tgan asrning 70 yillarida paydo bo'ldi. Nufuzli oliygohlar, xorijning turli oliy o'quv yurtlarida va ilmiy markazlarning professor-o'qituvchilari shuningdek, ilmiy xodimlari bilan masofada turib (virtual universitet orqali o'qish) muloqot qilish tarmoqli masofali o'qitish deyiladi.



U asosan, internet orqali amalga oshiriladi. Bu o'rinda mashg'ulotlarni olib borish va ma'ruzalarni o'qish uchun televizion texnologiyalardan foydalaniladi. Bunda o'quvchi-talaba o'quv markazlaridagi o'qituvchiga davriy ravishda maslahatlarga borib turishi mumkin.

Hozirgi kunda talabalarga xorijiy tillarni masofali o'qitish orqali tashkil qilish juda katta samara bermoqda. Masofadan o'qitish orqali talabanning ilmiy dunyoqarashi, so'z boyligini, nutqini, mustaqil fikirlashini, bilish faoliyatini yuqori darajaga ko'tarishga erishamiz.

Ayniqsa bu borada axborotlarning modellashtirilishi, hayotiy masofalarning modelini qurish va dastur yaratish, o'qitish takomillashtirishning muhim garovidir.

Ayniqsa, xorijiy tillarni, jumladan, ingliz tilini masofadan o'qitish orqali internet tarmoqlariga ulansa, elektron kutubhona, elektron darslik, aloqaga chiqishning yangi bosqichini sifat darajasiga ko'tarish imkoni yaratiladi.

Masofali ta'limda talaba va o'qituvchi fazoviy bir-biridan ajratilgan holda o'zaro maxsus yaratilgan kurslar repititorlik mashg'ulotlari, nazorat shakllari, elektron darsliklar yaratish, aloqa o'rnatish, internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqot o'rnatish usullariga ega bo'ladilar.

Masofaviy o'qitish termini o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida axborot almashish masofadan turib texnik aloqa vositalari yordamida amalga oshirilganda qo'llaniladi. Masofaviy o'qitishning an'anaviy shakllariga nisbatan ommaviylashganligini uning qator xususiyatlari bilan tushuntirish mumkin:

Birinchi, masofaviy o'qitishning har bir inson uchun qulay va arzonligi;

Ikkinchi, keng demokratligi, chunki undan turli yoshdagi hamda bilim darajasi, ijtimoiy kelib chiqishi turlicha bo'lgan har xil insonlar foydalanadilar.

Uchinchi, har bir o'quvchi o'zining istagi, qobiliyatidan kelib chiqib o'qitish kursini tanlashi mumkinligidir.

Masofaviy o'qitishni tashkil etishda o'quvchi va o'qituvchida texnik vositalarning quyidagi yig'masi bo'lishi kerak:


shahsiy kompyuter;

modem;

telefon;

Mazkur vositalar yordamida masofaviy o'qitish ishtirokchilari o'zlarining kompyuterlari ekranlariga matnli, grafik, video axborotni qabul qilishlari mumkin. Masofaviy o'qitish an'anaviy o'qitishga xos bo'lgan bir qancha afzalliklarni saqlab qolganligini ham ko'rishimiz mumkin.

Bunda o'qituvchi va eshituvchilar o'rtasidagi muloqotni olib ko'rsak. Buning yaqqol misoli sifatida tashkil etilayotgan turli videokonferensiyalarni ko'rsatish mumkin. Bu anjumanlar real



vaqtda to'g'ridan-to'g'ri muloqot (chat) elektron pochta orqali yozishmalar vositasida amalga oshiriladi.

Bunda kompyuter texnologiyasi yordamida faqat eshitish yoki o'qishni emas, bir-birini ko'rish, muloqot qilish, o'zaro interfaol usulda ma'lumotlar almashish, ularni qayta ishlash imkoniyati paydo bo'ladi.

Masofali o'qitish tizimi undan foydalanuvchilar uchun talay qulayliklarni yaratadi. Jumladan ularning vaqti tejaladi. O'qituvchi chekkada turib tinglovchini ob'ektiv kuzatadi. Bundan tashqari, masofaviy o'qitish jarayonida materialni o'zlashtirganlik darajasini nazorat qilish imkoni paydo bo'ladi.

Bunda har bir kurs bo'yicha interaktiv testlar va kurs ishlarini bajarish ham amalga oshiriladi. Shuningdek, o'qituvchi tomonidan test topshiriqlarini bajarilishini nazorat qilish imkoniyati mavjud bo'ladi. Binobarin, masofali o'qitish tizimidan o'z o'rnida foydalanilganda bir qancha imkoniyatlarga ega bo'lish mumkin.

Jumladan:

Malakali professor-o'qituvchilar tomonidan yurtimizning istalgan viloyatidagi oliygo'ha talabalariga dars berish imkoniyati paydo bo'ladi;


Talabalar (tinglovchilar) faqat mamlakatimizda emas, balki rivojlangan davlatlarning yetuk pedagoglaridan ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ladilar;

Masofaviy ta'limda ta'lim oluvchi va o'qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o'zaro maxsus yaratilgan o'quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va Internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo'ladilar. Internet texnologiyasini qo'llashga asoslangan masofaviy o'qitish jahon axborot ta'lim tarmog'iga kirish imkonini beradi.

Masofaviy o'qitish barcha ta'lim olish istagi bo'lganlarga o'z malakasini uzluksiz oshirish imkonini yaratadi. Bunday o'qitish jarayonida ta'lim oluvchi interaktiv rejimda mustaqil o'quv-uslubiy materiallarni o'zlashtiradi, nazoratdan o'tadi, o'qituvchining bevosita rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagi boshqa "virtual o'quv guruhi" ta'lim oluvchilari bilan muloqotda bo'ladi.

Yuqoridagilarga asoslanib, ta'lim jarayoniga oid ayrim terminlar tavsifi va ta'riflarni keltirib o'tamiz:

1. Masofaviy ta'lim - masofaviy o'qitishga asoslangan ta'lim;
2. Masofaviy o'qitish - o'zaro ma'lum bir masofada Internet texnologiya yoki boshqa interaktiv usullar va barcha o'quv jarayonlari komponentlari - maqsad, mazmun, metod, tashkiliy shakllar va o'qitish usullariga asoslangan ta'lim oluvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabat.



3. Masofaviy o'qitish tizimi - masofaviy o'qitish shartlari asosida tashkil etiladigan o'qitish tizimi. Barcha ta'lim tizimlari singari masofaviy o'qitish tizimi o'zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega.

4. Masofaviy o'qitishning pedagogik texnologiyalari - tanlangan o'qitish konsepsiyasiga asoslangan masofaviy ta'limning o'quv-tarbiyaviy jarayonini ta'minlovchi o'qitish metodi va uslublar majmuasi.

Aytish mumkinki, mamlakatimizda ta'lim sohasida ro'y berayotgan tub yangilanishlar har bir ta'lim muassasasida o'quv jarayonining metodik ta'minotini rivojlantirishni talab etadi.

Zamanaviy jarayonda masofaviy o'qitish, dunyodagi ta'lim shakllarining eng mashhuri hisoblanadi. Bugungi kunda, masofaviy o'qitish uslubidagi universitet va kollejlarda tarmoqlari beshta qit'aga yoyilgan.

Xalqaro Axborotlashtirish Akademiyasi tashkil qilinib, 1998yil esa uning tarkibida Umumjahon Taqsimlangan Universiteti tashkil qilindi, u bugunga kelib, uchta mamlakatda - Rossiyada, Qozog'istonda va Belgiyada qayd qilingan.


Albatta, hamma narsaning ham ijobiy, ham salbiy taraflari bo'lishi tabiiydir. Shu o'rinda, elektron darsliklarning kamchiliklari deb, ma'lumotni ekrandan olishning noqulayligini aytish mumkin. Zero, matnni, ma'lumotni ekrandan idrok etish, kitob o'qishdan ko'ra noqulay va samarasizligi bo'lsa, boshqa tarafdin elektron darslik kitobga qaraganda qimmatroqligidir.

Albatta, bu ham individual bo'lib, shaxsning ma'lumotni qay holda, qaerdan olishini ixtiyoriy ravishda tanlashiga bog'liq.

Xulosa qilib aytganda, elektron darsliklardan foydalanish amaliyoti, shuni ko'rsatadiki, talabalar bayon etilgan materialni samarali o'zlashtirishyapti, buni test natijalari tasdiqlaydi. Shunday qilib, axborot-texnologiyalar rivoji yangi uslublarni ta'lim uslublarida yaratishni va shu bilan, ta'lim sifatini ko'tarishga keng imkoniyat yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Андреев А.А., Солдаткин В.И. Дистанционное обучение: сущность, технология, организация. - М.: МЭСИ, 1999.
2. Гребенев И.В. Методические проблемы компьютеризации обучения в школе. //Педагогика. №5. 1994.
3. Карамышева Т. В. Изучение иностранных языков с помощью компьютера. - С.П.: Союз, 2001
4. Mustafqulova H.A. "Tilning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni" - XXII-International Scientific conference "Modern scientific challenges and trends"-(20 December, 2019), Issue 11(22). Part 2. pp-99-101. iScience Poland-Warsaw.



5. Mustafqulova H.A. "Til o'rganish jarayonida zamonaviy pedagogika va axborot texnologiyalaridan foydalanish" - XXII-International Scientific conference "Modern scientific challenges and trends"-(20 December, 2019), Issue 11(22). Part 2. pp-46-48. iScience Poland-Warsaw.

